



Qoraqalpog'iston Respublikasida Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari


2025-yil yanvar-iyun oylari uchun

- I. Qoraqalpog'iston Respublikasi kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot
- II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar
- III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari
- IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari
- V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari
- VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar
va metama'lumotlar

I. Qoraqalpog'iston Respublikasi kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot

2025- yilning 1-iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 18 915 tani tashkil etdi.

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi¹




¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 20-apreldagi PF-113-sон Farmoniga asosan, davlat organlarida mavjud ma'lumotlar bazalarining dolzarbligini va statistik axborotlarning bir xilligini ta'minlash maqsadida Soliq qo'mitasi, Statistika agentligi va Adliya vazirligining davlat ro'yxatidan o'tgan yuridik shaxslar haqidagi ma'lumotlar bazalari to'liq xatlovdan o'tkazildi va aniqlangan farqlar bixillashtirilgan ma'lumotlar.



Shahar va tumanlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

| | 2024- yil 1- iyul holatiga, birlik | 2025-yil 1- iyul holatiga, birlik |
|--|---------------------------------------|--------------------------------------|
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 20 295 | 18 915 |
| Amudaryo | 1 762 | 1 544 |
| Beruniy | 1 745 | 1 720 |
| Bo'zatov | 314 | 296 |
| Qorao'zak | 542 | 425 |
| Kegeyli | 618 | 596 |
| Qo'ng'irot | 1 155 | 1 091 |
| Qonliko'l | 549 | 510 |
| Mo'ynoq | 535 | 498 |
| Nukus | 764 | 740 |
| Taxiatosh | 598 | 584 |
| Taxtako'pir | 366 | 253 |
| To'rtko'l | 2 276 | 2 082 |
| Xo'jayli | 1 073 | 959 |
| Chimboy | 888 | 798 |
| Shumanay | 412 | 445 |
| Ellikqal'a | 1 561 | 1 268 |
| Nukus sh. | 5 137 | 5 106 |

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni




Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
[Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni](#)

II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2025- yilning yanvar-iyunida 1 744 ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi.

2025- yilning yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida 588 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 384 ta, sanoatda 218 ta hamda boshqa xizmatlarda 184 ta tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni



Shahar va tumanlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

| | 2024- yil yanvar-iyun oylarida, birlik | 2025-yil yanvar-iyun oylarida, birlik |
|--------------------------------------|---|--|
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 1 792 | 1 744 |
| Amudaryo | 140 | 92 |
| Beruniy | 160 | 154 |
| Bo'zatov | 24 | 30 |
| Qorao'zak | 33 | 40 |
| Kegeyli | 47 | 62 |
| Qo'ng'irot | 109 | 99 |
| Qonliko'l | 48 | 54 |
| Mo'ynoq | 58 | 59 |
| Nukus | 64 | 50 |
| Taxiatosh | 41 | 60 |



| | | |
|-------------|-----|-----|
| Taxtako'pir | 36 | 14 |
| To'rtko'l | 182 | 124 |
| Xo'jayli | 87 | 94 |
| Chimboy | 60 | 62 |
| Shumanay | 68 | 76 |
| Ellikqal'a | 166 | 141 |
| Nukus sh. | 469 | 533 |

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni \(oylik\)](#)


[Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni \(yillik\)](#)

III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi

2025- yilning yanvar-iyunida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 61,4 % ni tashkil qilib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan 59,3 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami YaHMdagi ulushi \(choraklik\)](#)

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan sanoat ishlab chiqarishi faoliyati

2025-yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 5 243,0 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi, ya'ni sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmining 40,5 % ini tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotlaridagi eng yuqori ulushi Bo'zatov tumani (100,0 %), Beruniy tumani (95,6 %), Ellikqal'a tumani (80,3 %), Xo'jayli tumani (78,2 %) va To'rtko'l tumani (75,2 %) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmi va jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


- [Kichik tadbirkorlik subyektlarining ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari \(xizmatlari\) hajmi \(choraklik\)](#)
- [Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari \(xizmatlari\) dagi ulushi \(choraklik\)](#)

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish faoliyati

2025- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 4 223,3 mlrd so'mni, ya'ni qurilish ishlari umumiy hajmining 91,4 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 108,4 % ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus sh. (89,1 %), Bozatov tumani (80,1 %) va Xo'jayli (74,1 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

- [Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi \(choraklik\)](#)




Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami qurilish ishlaridagi ulushi (choraklik)
Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya faoliyati

2025- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 4 013,2 mlrd so'mni, ya'ni umumiy hajmidagi ulushi 39,1 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 127,0 % ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmidagi eng yuqori ulushi Shumanay tumani (90,0%), Taxtako'pir tumani (86,3 %), Kegeyli tumani (82,4 %) va To'rtko'l (80,9%) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi (choraklik)


Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalardagi ulushi (choraklik)

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi faoliyati

2025- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligidagi hajmi 5 294,4 mlrd so'mni, ya'ni umumiy hajmidagi ulushi 96,6 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 103,9 % ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlikning qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Kegeyli tumani (99,9 %), Xo'jayli tumani (99,7 %), Qo'ng'iroq tumani (99,3 %) va Qonliko'l (99,2 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yetishtirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsuloti hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlarini (xizmatlarini) ishlab chiqarish hajmi (choraklik)


Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami qishloq o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlarini (xizmatlarini) ishlab chiqarishdagi ulushi (choraklik)

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan chakana savdo faoliyati

2025- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning chakana savdo aylanmasi hajmi 6 509,3 mlrd so'mni, ya'ni umumiy hajmining 97,3% ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 108,8 % ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi eng ko'p ulushi Qonliko'l tumani (99,9 %), Qorao'zak tumani (99,8 %), Nukus tumani (99,8 %) va Taxtako'pir (99,8 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari chakana savdo aylanmasining hajmi va jami savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo aylanmasi hajmi (choraklik)


Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami chakana savdo aylanmasidagi ulushi (choraklik)

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan xizmatlar faoliyati

2025- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning ximatlar sohasidagi hajmi 11 120,2 milliard so'mni, ya'ni umumiy hajmining 72,4 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 113,2 % ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar hajmidagi eng ko'p ulushi Mo'ynoq tumani (84,3 %), Taxtako'pir tumani (76,7 %), To'rtko'l tumani (72,5 %), Qorao'zak tumani (70,6 %) va Xo'jayli (69,7 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmi \(choraklik\)](#)


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami ko'rsatilgan xizmatlardagi ulushi \(choraklik\)](#)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2025- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 65 122,7 ming AQSH dollarini, ya'ni umumiy eksport hajmining 35,2 % ni tashkil etdi.

2025- yilning yanvar-iyunida Shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Beruniy, Bozatov, Qorao'zak, Mo'ynoq, Taxtako'pir va Ellikqal'a tumanlarida – 100,0 %, ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) eksporti hajmi va jami eksport hajmidagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot (ishlar, xizmatlar) eksporti hajmi (choraklik)


Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami mahsulot (ishlar, xizmatlar) eksportidagi ulushi (choraklik)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2025- yilning yanvar-iyunida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 89 403,1 ming AQSH dollarini, ya'ni jami importning 67,2 % ni tashkil etdi.

2025- yilning yanvar-iyunida Shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Amudaryo, Beruniy, Mo'ynoq, Nukus va Ellikqal'a tumanlarida – 100,0 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) import hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot (ishlar, xizmatlar) importi hajmi (choraklik)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami mahsulot (ishlar, xizmatlar) importidagi ulushi (choraklik)

IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish umumiy hajmidagi ulushi


2025- yilning yanvar-iyunida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 94,5 % ni tashkil etdi. 2024- yilning ushbu davriga nisbatan o'sish sur'ati 101,7 % ni tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-iyunida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 92,0 % ni tashkil etgan bo'lib, 2024-yilning ushbu davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,6 % ni tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-iyunida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 99,2 % ni tashkil etib, 2024- yilning ushbu davriga nisbatan o'sish sur'ati 100,9 % ni tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-iyunida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 99,0 % ni tashkil etib, 2024- yilning ushbu davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,8 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami transport faoliyatlaridagi ulushlari dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

- [Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish hajmi \(choraklik\)](#)
- [Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami yuk tashishdagi ulushi \(choraklik\)](#)
- [Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk aylanmasi hajmi \(choraklik\)](#)
- [Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami yuk aylanmasidagi ulushi \(choraklik\)](#)
- [Kichik tadbirkorlik subyektlarining yo'lovchi tashish hajmi \(choraklik\)](#)
- [Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami yo'lovchi tashishdagi ulushi \(choraklik\)](#)
- [Kichik tadbirkorlik subyektlarining yo'lovchi aylanmasi hajmi \(choraklik\)](#)
- [Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami yo'lovchi aylanmasidagi ulushi \(choraklik\)](#)

V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari


Umumiy iqtisodiy holatining baholanishi (korxonaning joriy holati bo'yicha)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2021- yilning yanvar-iyunida 42,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-iyunida esa 37,7 % ni tashkil qildi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2021- yilning yanvar-iyunida 49,4 % bo'lgan bo'lsa. Bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-iyunida 53,4 % ga etgan yoki 2021- yilning yanvar-iyuniga nisbatan 4,0 birlikka ko'paygan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2021- yilning yanvar-iyunida 7,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2025- yilning yanvar-iyuniga kelib, bu ko'rsatkich 6,9 % ga yetgan yoki 2021- yilning yanvar-iyuniga nisbatan 0,8 birlikka kamaygan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar-iyun oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha)




Umumiy iqtisodiy holatning baholanishi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari to'g'risida o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli yaxshilanadi deb baholagan korxonalar ulushi 2021- yilning yanvar-iyunida 50,5 % ni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-iyunida 42,8 % ni tashkil qildi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarmaydi deb baholagan korxonalarning ulushi 2021- yilning yanvar-iyunida 43,0 % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-iyunida 52,6 % yoki 9,6 birlikka oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashadi deb hisoblagan korxonalarining ulushi esa 2021- yilning yanvar-iyunida 6,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2025- yilning yanvar-iyuniga kelib, bu ko'rsatkich 2,8 % ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar-iyun oylarida umumiyl iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)




Kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatni baholash

Kichik korxona va mikrofirmalarning 2025- yilning II choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatini qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi sanoatda – 43,9 % ni, qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 40,8 % ni va savdoda – 38,7 % ni tashkil etdi.


Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qurilishda – 58,3 % ni, xizmatlar sohasida – 57,1 % ni va qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 53,9 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi – sanoatda 10,3 %, savdoda – 7,4 % ni va qurilishda – 7,1 % ni tashkil etdi.





Biznesga ishonch muhitini baholash (o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar)



VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjalariiga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o'z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida, notijorat tashkilotlar bo'lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/2977/Korxonalar-va-tashkilotlar-soni.pdf>
<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1918/Kichik-biznes-korsatkichlari.pdf>
<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1917/Kichik-biznesning-tarmoqlar-bo'yicha-ulushi.pdf>

